

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



GEOMORFOLOGIYA
FANINING O`QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika
va statistika
Ta’lim sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Mutaxassislik: 70530201 - Geografiya

Fan/mavzu kodi Geomor1206	O`quv yili 2024-2025	Semestr II	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta`lim tili O`zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg`ulotlari (soat)	Mustaqil ta`lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geomorfologiya	44	46	90
2.	<p>I. Fanning mazmuni -70530402- Geografiya mutaxassisligi magistrlerini eng yangi ma`lumotlar va bilimlarga tayangan holda tabiiy geografik omillarning yer yuzasi relyefi taraqqiyotidagi o`mi va ahamiyati, geografik qobiqda sodir bo`adigan relyefdagi tabiiy geografik jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishining geografik asoslari haqida bilimlar berish.</p> <p>Yer yuzasi relyefining tabiiy baholashni hamda uning asoslarini tahlil qiladi. Geografik qobiqning rivojlanishida kichik antropogen landshaftlarni o`rni, ularning tuzilishi, rivojlanishi va geografiik xususiyatlarini o`hib berishga qaratiladi. Mazkur kurs yer yuzasi relyefi taraqqiyoti va unda antropogen landshaftlarni ahamiyatini o`rganishgandir.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma`ruza mashg`ulotlari)</p> <p>II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- mavzu. Geomorfologiya fanini mazmuni, maqsadi va vazifalari. Fan. Fanlar tizimi. Tabiiy fanlarning vazifalari. Geografiya fanlari tizimi. Fanning maqsad va vazifalari.</p> <p>2- mavzu. Tabiiy geografiya fanlar tizimi. Umumiy tabiiy geografik fanlar (Umumiy yer bilimi, umumiy geomorfologiya, umumiy gidrologiya, tabiiy geografik rayonlashtirish). «Geomorfologiya» fanining tarixidan. «Geomorfologiya» fanlari sohasida olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqot ishlari.</p> <p>3-mavzu. Relyef to`g`risida umumiy tushuncha. Relyef shakllari va elementlari. Relyef morfografiyasi va morfometriyasi. Relyef genezisi va yoshi. Relyef hosil qiluvchi omillar.</p> <p>4-mavzu. Tog` jinslarining xususiyatlari va ularning relyef hosil bo`lishdagi roli. «Geomorfologiya» fanlari maktablari. Moskva, Sank-Peterburg, Voronej universitetlarida va O`zbekiston Milliy universitetida qilingan nazariy va amaliy ishlar.</p> <p>5-mavzu. Endogen jarayonlar va yer yuzasining planetar relyef shakllari. Tektonik harakatlar va relyef. Magmatizm, zilzilalar va relyef.</p> <p>6-mavzu. Yer yuzasining endogen relyefi. Materiklar megarelyefi. Quruqlik platformalarining megarelyefi. Materiklarning harakatchan mintaqasi megarelyefi.</p> <p>7-mavzu. Materiklar suv osti chekasining megarelyefi. O`tish zonasi megarelyefi. Okean tagi va suv osti o`rtalik tizmalarining megarelyefi.</p>			

8-mavzu. Ekzogen jarayonlar va relyef. Ekzogen jarayonlar va morfoskulptura relyef shakllari. Ekzogen jarayonlar to`g`risida tushuncha. Relyef endogen va ekzogen jarayonlarining o`zaro aloqasi natijasida shakllanadi degan tushuncha-zamonaviy geomorfologiya fanining asosiy boshlang`ich qoidasidir. Bu tezis Yerning relyefini genezisini (kelib chiqishini) eng umumiy aniqlovchisidir.

9-mavzu. Nurash va relyef hosil bo`lishi. Fizikaviy nurash jarayonlarining tezkorligiga tog` jinslarining issiqlik o`tkazuvchanligi va issiqlik sig`imi ham muhim rol o`ynaydi.

10-mavzu. Tog` jinslari qanchalik issiqlikni kam o`tkazuvchan bo`lsa, uning yuzasida harorat farqi shunchalik katta bo`ladi. Uning yuza qismi quyosh nurlari ta`sirida tez qiziydi va uning hajmi ham o`zgaradi. Sovuqroq bo`lgan ichki qismida esa bu hodisa kuzatilmaydi. Buning oqibatida tog` jinsi yuzasida yoriqlar paydo bo`ladi, u tez parchalanishga uchraydi.

11-mavzu. Yonbag`irlar, yonbag`ir jarayonlari va yonbag`rlar relyefi. Yonbag`rlarning rivojlanishi, peneplen, pediment, pediplen va tekislangan yuzalar to`g`risida tushuncha.

Yonbag`irlar qiyaligiga ko`ra quyidagicha bo`linadi: **tik** ($>35^\circ$), **qiya** ($35^\circ-15^\circ$), **o`rtacha qiyalikda** ($15-8^\circ$), **yassi** ($8-4^\circ$) va **juda yassi** ($4-2^\circ$). Yonbag`irlarning qiyaligiga qarab yonbag`irda sodir bo`ladigan jarayonlarni va ulardan xo`jalikda foydalanish yo`llarini bilib olish mumkin. Yonbag`irlar shakliga ko`ra **to`g`ri, qavariq, botiq va zinapoyasimon** turlarga bo`linadi.

12-mavzu. Flyuvial jarayonlar va relyef shakllari. Oqar suvlar ishlarining ayrim umumiy qonuniyatlari. Daryo vodiylarining shakllanishiga joyning geologik va tektonik tuzilishining ta`siri.

13-mavzu. Vodiylarning genetik va morfologik tiplari. Daryo vodiylari va ularning relyefi. Daryolarning quyur joyi va vaqtincha o`zanli oqimlarning ishidan hosil bo`lgan relyef shakllari.

14-mavzu. Arid o`lkalar relyef shakllari. Deflasiya va korraziya relyef shakllari. Eol akkumulsiya shakllari. Cho`llarda arid-denudasiya relyef shakllari.

15-Mavzu. Karst hodisasi va karst relyef shakllari. Karstning hosil bo`lish jarayoni va uning rivojlanishi. Karst relief shakllari. Karst oblastlari gidrografiyasining xususiyatlari. Karst relyefining geografik tarqalishi. Karst relyefining ahamiyati. Soxta (psevdo) karst.

16-Mavzu. Glyasial va muzloq relyef shakllari. Giyasial relyef. Tog` muzliklarining relyefi. Muzloq (kriogen) relyef. Qirg`oqlar relyefi. Qirg`oq chizig`i, Qirg`oq, Qirg`oq zonasi, Abrazion va akkumlyativ qirg`oqlarning vujudga kelishi. Qirg`oq tiplari.

17-Mavzu. Harakatdagi muzlik asosan uch xil ish bajaradi: ekzaratsiya (muzlik eroziyasi), jinslarni olib ketish va akkumulyatsiya. **Muzlik ekzaratsiyasi**, avvalo, yaxlit tub jinslar parchalarining yulib olinishi va ularni muz tarkibida muzlab qolib, u bilan birga harakat qilishidan iborat. Muz ham, unga yopishib yaxlab qolgan tog` jinslari parchalari ham o`zanlar osti va

yonlariga muzning og'irligi natijasida bosib turuvchi qattiq xarsanglar ularda tirlangan joylar, chiziqlar va jo'yaklar hosil qiladi. Shu bilan birga xarsanglarning o'zi ham yumaloqlanib va silliqanib qoladi.

18-Mavzu. Muzloq (kriogen) relyef. Yer sharidagi barcha quruqlikning 20-25 foizi *ko'p yillik muzloq erlar* bilan band. Bu yerlarda grunt yer betidan ma'lum chukurlikda uzoq vaqtlardan beri muzlab yotadi. Bu gruntlardagi suv ham asosan muz holatida bo'ladi. Bevosita yer betidan ko'p yillik muzloqning ustki chegarasigacha bo'lgan qismida *faol qatlam* joylashgan. Faol qatlam issiq faslda erib, sovuk faslda muzlaydi. Tuproqlarning paydo bo'lishi, yer osti hayvonlari va o'simlik ildizlarining faoliyati, relyefda o'z aksini qoldiruvchi fizik va mexanik jarayonlar mana shu faol qatlam bilan bog'liqdir.

19-Mavzu. Dengiz qirg'oqlar relyefi. Qirg'oq chizig'i, qirg'oq, qirg'oq zonasi, abrazion va akkumulyativ qirg'oqlarning vujudga kelishi. *Qirg'oq chizig'i* quruqlik va dengiz chegarasi bo'lib, u suv yuzasining ko'p yillik o'rtacha holati bilan aniqlanadi. Uning umumiy uzunligi 779 ming km ga boradi. *Qirg'oq* esa davriy ravishda quriydigan yoki suv bosadigan va mavjud dengiz sathidagi to'lqinlar, suv qalqishlari, haydama va qaytarilma suvlarning doimiy ta'sirida bo'lgan quruqlik tomonidan qirg'oq chizig'iga yondashgan yer yuzasining tasmaimon qismidir. Okean va dengiz suvlarining ishi natijasida qirg'oq chegarasi kengayib yoki qisqarib turadi. *Qirg'oq zonasiga* qirg'oq va suv osti qirg'oq yonbag'ri kiritiladi. Bu zonada hozirgi vaqtda quruqlik va okean o'rtasida doimiy aloqadorlik yuz berib turadi. U *dengiz qirg'oqlari geomorfologiyasini* o'rganish ob'ektidir.

20-Mavzu. Okean tubidagi ekzogen jarayonlar. Suv yuzasining tebranma harakatlaridan iborat bo'lgan to'lqinlanishdan tashqari okean hamda dengiz suvi massalari uzoq-uzoqlarga oqib boradi. Bular **okean oqimlaridir**.

21-mavzu. Okean oqimlari suvning bo'ylama harakatlari bilan birgalikda Dunyo okeani suvlarining sirkulyatsiyasini (aylanma harakatini) vujudga keltiradi, shu jumladan oqimlar ham bir qancha sabablarga ko'ra vujudga keladi, shulardan eng asosiysi shamollardir.

22-Mavzu. Tog` va tekislik o`lkalarining relyefi. Quruqlik yuzasining shakllari juda turli-tumandir, shunga qaramay biz katta shakldagi relyeflarni asosiy 2 guruhga ajratamiz:

1. Tog`lar.

2. Tekisliklar.

Tog` deb odatda etagini, yonbag`rini va cho`qqisini osonlik bilan ayirib bo`ladigan barcha balandliklarga aytiladi. Tog`lar ayrim-ayrim holda kam uchraydi, ular ko`pincha katta guruhlarga birlashgan bo`ladi. Tog`larni balandligi etagidan hamda okean yuzasidan ulchanadi. Tog`larning nisbiy va mutloq balandliklari bo`ladi. Barcha tog`larni hosil qiluvchi disklokatsiya jarayonlari orogenetik (tog` tug`uvchi) jarayonlar deb aytiladi, ular yer qobig`ining rivojlanish tarixida qisqa muddatli bir hodisa deb hisoblanadi. Tog`larni tabaqalanish tamoyiliga ko`ra tog`lar balandligiga qarab 3 guruhga bo`linadi:

- 1) *Past tog`lar - 500-1000 m gacha.* 2) *O`rta tog`lar - 1000-2000 m gacha.*
3) *Baland tog`lar - 2000 m dan baland.*

III. Amaliy mashg`ulotlar bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar

amaliy mashg`ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu.** Geomorfologiya fanlari tizimi, fanining maqsadi va vazifalari.
- 2-mavzu.** Geomorfologiya fanining rivojlanish tarixi.
- 3-mavzu.** Relyef to`g`risida umumiy tushuncha.
- 4-mavzu.** Relyef shakllari va elementlari to`g`risida tushuncha.
- 5-mavzu.** Relyef morfografiyasi va morfometriyasi.
- 6-mavzu.** Relyef genezisi va yoshi.
- 7-mavzu.** Relyef hosil qiluvchi omillar.
- 8-mavzu.** Tog` jinslarining xususiyatlari va ularning relyef hosil bo`lishdagi roli.
- 9-mavzu.** Tektonik harakatlar va relyef
- 10-mavzu.** Yoriqlar hosil qiluvchi harakatlarning relyef shakllari.
- 11-mavzu.** Geosinklinal zonalar va ularning fazalari. Platformalar.
- 12-mavzu.** Materik va okean yer po`stining tuzilishi.
- 13-mavzu.** Magmatizm va zilzilalar va relyef.
- 14-mavzu.** Yer yuzasining endogen relyefi.
- 15-mavzu.** Materiklar megarelyefi.
- 16-mavzu.** Quruqlik platformalarining megarelyefi.
- 17-mavzu.** Tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo`lish omillari.
- 18-mavzu.** Tabiiy geografik jarayonlarning asosiy guruhlarini va ularni jadvalini tuzish.
- 19-mavzu.** Nurash xodisasi va uni tarqalgan hududlari xaritasini tuzish.
- 20-mavzu.** Eroziya jarayoni, uni baholash va bashorat qilish usullari.
- 21-mavzu.** Surilmalarni baholash usullarini kiyosiy taqqoslash.
- 22-mavzu.** Tabiiy geografik jarayonlarga qarshi kurash, chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
- 23-mavzu.** Zilzila vulqonlar. Inson faolyaitida ta`sirida vujudga keladigan jarayonlar.

IV. Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta`limning mavzulari:

- 1-mavzu.** Tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo`lish omillari.
- 2-mavzu.** Tabiiy geografik jarayonlarning asosiy guruhlarini va ularni jadvalini tuzish.
- 3-mavzu.** Nurash xodisasi va uni tarqalgan hududlari xaritasini tuzish.
- 4-mavzu.** Eroziya jarayoni, uni baholash va bashorat qilish usullari.
- 5-mavzu.** Surilmalarni baholash usullarini kiyosiy taqqoslash.
- 6-mavzu.** Tabiiy geografik jarayonlarga qarshi kurash, chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
- 7-mavzu.** Zilzila vulqonlar. Inson faolyaitida ta`sirida vujudga keladigan jarayonlar.
- 8-mavzu.** Yer osti suvlar faoliyati ta`sirida sodir bo`ladigan jarayonlar:

	<p>oqmalar.</p> <p>9-mavzu. Karst va uning tarqalishi. Karstning yer usti va osti shakllari.</p> <p>10-mavzu. Daryo eroziyasini bashorat qilish va daryo qiroqlarini muhofaza qilish.</p>
3	<p style="text-align: center;">V. Geomorfologiya fani o`qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o`zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Fanlar tizimi. Tabiiy fanlarning vazifalari. Geografiya fanlari tizimi. Fanning maqsad va vazifalari. Tabiiy geografiya fanlar tizimi. Umumiy tabiiy geografik fanlar (Umumiy yer bilimi, umumiy geomorfologiya, umumiy gidrologiya, tabiiy geografik rayonlashtirish); (bilim) • Ekzogen jarayonlar va morfoskul`ptura relyef shakllari. Ekzogen jarayonlar to`g`risida tushuncha. Relyef endogen va ekzogen jarayonlarining o`zaro aloqasi natijasida shakllanadi degan tushuncha-zamonaviy geomorfologiya fanining asosiy boshlang`ich qoidasidir. bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko`nikma) • barcha geomorfologik kartalarini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanib, yangi bilimlar olish, olgan bilimlarini o`quvchilarga tushunarli qilib yetkazish ko`nikmalariga ega bo`lishi kerak; (malaka)
4	<p style="text-align: center;">VI. Ta`lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg`ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to`la o`zlashtirish, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o`rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo`yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abdujabbarov M.A., Umarov M., Umumiy geomorfologiya 1-2 qism, SamGU, 1980-1981. 2. Raxmatov Yu.B. Geomorfologiya, darslik, «Durdona», Buxoro, 2022. 3. Mamatqulov M. O`rta Osiyo geomorfologiyasi. T. «Universitet», 2010. 4. Nurov U., Umumiy geomorfologiya Buxoro, 2004. 5. Леонтьев О.К., Рычагов Г.И. Общая геоморфология «Высшая школа», М., 1979. 6. Щукин И.С. Общая геоморфология, МГУ, 1,2,3,4 томов, 1960,1964, 1974, 1976. 7. Звонкова Т.В. Прикладная геоморфология, «Высшая школа», М., 1970. <p style="text-align: center;">Qo`shimcha adabiyotlar</p>

	<p>5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи гезетаси. 2017 йил январь, № 11.</p> <p>6. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. “Ўзбекистон”, 2017.</p> <p>7. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.</p> <p>8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3. www.ziyonet.uz 4. www.lex.uz; 5. www.bilim.uz; 6. www.gov.uz;
7	<p>Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va Institut Kengashining 2024 yil 6-oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
8	<p>Fan/modul uchun mas`ullar: Raxmatov Yu.B. – Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini dots., prof.v.b.</p>
9	<p>Taqrizchilar: To`xtaeva H.T. – Toshkent irrigasiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institute milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute gidrologiya va ekologiya kafedrasining dotsenti Kodirova M.M.- Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasini katta o`qit.</p>

Kafedra mudiri:

DSc. S.R.Shodiyev

№ _____